

IDORA ETILGANLAR

Qissa

Soat o'n bir. Ko'pchilik ishxonalarda — pul almashtirish tuynukchalariyu telefon kartochkasi sotadigan mayda shaxobchalarda, turli-tuman boshqarmalarda taxminan shu paytda boshliqlar tan olmaydigan, ammo oddiy xizmatchilar qat'iy amal qiladigan kichik tanaffus boshlanadi.

Bo'limimizda ham tushlikning ana shunday debochasi an'ana tusiga kirgan. Bunda hamkasblar bir-ikki piyola qahva ustida eng so'nggi ma'lumotlaru bo'limlararo yangiliklar borasida o'zaro fikr almashadi, bir-biriga do'stona maslahatlar beradi, kimdandir noliydi, kimnidir maqtaydi. Jo'nroq qilib aytganda, ko'ngillarni ilituvchi, yuraklarning xijilini yozuvchi mashg'ulot — «g'iybat-ul-unsur» otlig' «muolaja» orqali siniq kayfiyatlar birmuncha ko'tariladi, o'ksik dillar charog'on bo'ladi. Qarabsizki, yarim soatdan keyin xodimu xodimalar yana yangi shijoat va g'ayrat ila ishga kirishadi. Ushbu muolajaning obyektlari va subyektlari juda keng qamrovli bo'lgani uchun hozircha bo'limimiz doirasidan chetga chiqmagan holda, ularni sizga tanishtirib o'tsam.

Bog'imizning chinori bilan ikki guli

Albatta, gapni boshliqdan boshlaymiz. Ismi — Tohir, familiyasi — shartmas shekilli... Ko'rinishidan o'ttizlardagi, ozg'in, novchagina, yuziga o'zidan va yaqinlaridan mamnunligi go'yo yozib qo'yilgan bu yigit grant bilan g'arb davlatlarining birida tahsil olgan yosh avlodimizning baxtiyor vakillaridan bo'lib, g'arbona menejment tamoyillarini bo'limimizning tor doirasida keng tatbiq etish bilan shug'ullanadi. Masalan, bo'limimizda hech kim «aka-opa»lamaydi, rasmiyat uchun otalar nomi ham tilga olinmaydi, hamma teng: bir-birovimizni toq ismimiz bilan

chaqiramiz-qo'yamiz. Soat oltidan keyin yoki shanba va yakshanba kunlari kallamizga qilich kelsa ham ishlamaymiz, negaki, «g'arbona» boshlig'imizning fikricha, bu ishni rejalashtira olmasligimizdan, qo'yilgan vazifalarni muddatida bajarishga qurbu quntimiz yetmasligidan dalolat beradi, ya'ni malakasizligimizni anglatadi. Yana, bo'limimiz ayollari tomonidan g'arb dunyo-qarashining jirkanch nuqsoni deb qaraladigan, erkaklarimiz esa erkinlik timsoli sifatida qabul qilgan odatlardan biri— oyoqni stolning ustiga qo'yib o'tirish, xuddi shu tarzda suhbat qurganicha, qahva ichishdir... Xullas, g'arblashtirish Tohirning bor-yo'q kamchiligi bo'lgani sababli, biz bir ovozdanda boshliq masalasida omadimiz chopganini tan olarkanmiz, boshqa bo'lim xodimlarining asosli hasadini mardona yengishimizga to'g'ri keladi. Buning ustiga Tohirning shu va shunga o'xshash kerak-nokerak islohotlari bo'limimizga alohida fayz, qut-baraka, u yo'qligida kechadigan suhbatlarimizga esa turli-tuman mavzular baxsh etib turadi.

Tohirning stoliga eng yaqin joyni Natashaxonim egallagan. Boshlig'imiz uni g'arbachasiga Natali deb chaqiradi. Opamning qaynotalari aytganidek, har bir buyuk shaxsning ortida buyuk ayol bo'lgani kabi, mansab pillapoyalaridan sakrab-sakrab tepaga ko'tarilayotgan yoki ko'tarilgan har bir erkakning ortida rus tilida ona tilidagidek gaplasha oluvchi ayol turadi. Egallagan lavozimlari, maoshlarining miqdori, yoshlari, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, bunday ayollarni birlashtiruvchi xususiyatlardan biri, albatta, bejirimgina turmaklangan sochlari tagidan ufurib turuvchi aql-zakovatga qorishgan iqtidorlari bo'lsa, ikkinchisi, negadir, ularning aynan rus tilida mukammal gaplashishlaridir. Boshliqlarning qaror qabul qilishlariga muayyan darajada ta'sir eta oladigan bunday ojizalar avval kotiba, hisobchi, tarjimon, huquqshunos yoki biror boshqa vazifani do'ndirib bajarishadi. Keyinchalik, yangi-yangi cho'qqilarni zabt etganicha, kattaroq lavozimlarga ko'tarilgan boshliqlar, aksariyat hollarda, yengilgina kompyuterlari, tumor vazifasini o'tovchi biror ermak buyumlariyu mehnat daftarchalariga qo'shib, ana shu kotiba-tarjimonlarini ham o'zlari bilan birgalikda olib ketishadi. Xo'jayinlarining parvozlariga ko'ra, bunaqa qiz-juvonlar ellik yoshlarida kasaba bo'limi boshlig'i, prorektor, boringki, vazir o'rinbosariga aylanadi. Agar boshliqning baxti kulmasa yoki unga pastroq amal taklif qilinsa, anovilar keyingi kelgan boshliqlarga meros bo'lib qolaveradi.

Bizning Natashaxon ham ana shunday «kerakli yuk»lardan bo'lib, bo'limimizning eng fidokor xodimi hisoblanadi. Negaki u o'zini idoramizning ajralmas qismi deb his qiladi— nuqul «biz»lab, birinchi shaxs ko'plikda so'z boshlaydi.

Natashaning bo'yi o'rtadan ancha past, sochlari mallarang, rang-barang ko'ylaklari, kalta-kulta qat-qat yubkalari, gajimdor shimchalarining aksariyati varvaraqlaru burmalar bilan bezalgan. Bunday «qizaloq»ni birinchi marta ko'rgan kishi uni kamida yuqori sinf o'quvchisi, ko'pi bilan amaliyot o'tashga kelgan talaba bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Bo'lim boshlig'imiz bu jimitdek ayolni ko'pincha uchrashuvlarga o'zi bilan birga olib yuradi. Natashani tanimaydiganlar uni ko'rib, «yosh bolani nega ergashtirib yuribdi», deya ensasi qotadi. Natashaning bir necha tilda grammatik me'yoru qoidalarni unchayam pisand etmay sayrash, hozirjavoblighi, ishini puxta bilishi, barcha savollarga raqamu misollar yordamida aniq va lo'nda javob berishi tufayli hamsuhbatlarning hurmatini birinchi uchrashuvdayoq qozonib olishiga aslo shubha qilmaydigan Tohir kerakli hollarda uning ayollik malohatidan «pismi»q bomba sifatida foydalanib turadi.

Ertalabki tanaffusimizga qaytadigan bo'lsak, uning yana bir ijobiy tomoni shundaki, u bizga tushlik vaqtimizni gurunglarga bag'ishlamasdan, samaraliroq o'tkazishga yordam beradi. Negaki, bo'limimiz yoshlardan iborat bo'lishiga qaramay, ko'pchilik oilali va bola-chaqali: shaxsiy ishlarimizni tushlik paytida bajarmasak yana qachon vaqtimiz bo'ladi? Misol uchun, har safar kursisini surganda mening stolimga urilib ketadigan Faridaning ikkita qizi va barvastagina eri bor. Ertalab qizlarining sochlarini turmaklaydi, kiyintiradi. Ularga choy-poy ichirgach, kattasini maktabga jo'natadi, kichigini esa chopqillagancha bog'chaga olib boradi. Kechqurun ishdan qaytarda qizlarini onasinikidan yig'ishtirib uyga borguncha soat sakkiz, «g'arbona» boshliqqa yolchimagan eri kelguncha to'qqiz bo'ladi — shu bilan deyarli kun tugaydi. Shuning uchun tushlik chog'larida er-xotin «xufyona» uchrashib turishadi, uchrashuv o'xshamagan kunlari xotin atrofdagi do'konlardan bolalariga maydachuyda «ovlab» keladi. Uning bunday «ov»lariga gohida men ham hamrohlik qilaman. Tayin-tutumli biror narsa xarid qilmasdan xaltayu to'rvallarni, katta-kichik jomadonlarni tomosha qilishimni ko'rib, Farida «ov»ga emas, «safari»ga chiqibsiz deb, ustimdan kuladi. Men safarlar hali oldinda, deyman...

Ba'zan kattaroq do'konlarda murodu maqsadimizning ketidan yugurib, bir-birimizni yo'qotib qo'ygan paytlarimiz ham bo'lgan. Ana o'shanda Faridaning qizlaridan ortib qolgan sochbog'lar bilan ajabtovur bezatilgan boshini olomon ichida ko'rib qolaman-da, oldiga chopqillayman.

O'zi Farida ko'zga yaqin juvonlardan. Ayniqsa, uning unchamuncha idorabop — kulrang, jigarrang, o'pkarang, yurakrang liboslarini ochib turuvchi ushbu soch turmaklariyu shirin tabassumi sherigimga alohida malohat baxsh etadi. Mana shu shirin tabassumlar bo'limimiz axloq kodeksining yana bir yozilmagan qoidalaridan bo'lib, g'arbona «smayl»ning o'ziga xos ko'rinishidir. O'ziga xos deyishimning sababi shuki, g'arb ayollari kulganda ulardan qandaydir mustaqillik, o'ziga ishonch «barq» urib turadi. Bizning ayollarimizning tabassumlari, jilmayishlari, kulimsirashlari esa sharoitga qarab, hayo, ibo, erkalik, tantiqsirash, suzilish, ehtiros, kibr, xushomadgo'ylik, mensimaslik kabi illatu fazilatlar bilan qorishib ketadi, ta'rifga o'jiz bir omuxtaga aylanadi.

...va boshqalar

Bulardan tashqari bo'limimizda yana ikki xodim bor. Natasha deganlari, ularni, orqavoratdan, albatta, «bir hujayraliklar» deb ataydi. Aslida, juda unchalik emas. Endi hamma ham unga o'xshab aqli bo'lavermaydi-da. Agar Kafkani o'qimagan, yuqorida ta'rifi ketgan uchovlon «koelobozlik» davrida belgilar haqida yarim soat hazil qilishganda ular nimani nazarda tutayotganliklarini tushunmagan yoki Navoiy teatri bilan hamkorlik qilganimizda «Toska»ni «Alamli sog'inch» deb o'zbekchaga o'giranlarning barchasini shunday tasniflayversak, atrofimiz yashil tuflichalar kiygan amyobalarga to'lib ketadi...

«Bir hujayraliklar»ning biri — G'olib, yigirma besh yoshli, hali buzilmagan, keyinchalik ham buzilishi juda-juda gumon bo'lgan yigitlardan. Ishga faqat ko'ylak-galstukda keladi; og'ir-vazmin, hech qachon hech qayerga kech ham qolmaydi, mezbonlarni xijolat qilib, haddan tashqari ertaroq borishni ham o'ziga ep ko'rmaydi. Agar biror yerga kechiksa, bilingki, demak, yo protokol bo'yicha shunaqa bo'lishi kerak yoki milliy odatlarimiz shuni taqozo etadi. Uylangan, aytishlaricha, urug'-aymog'ida bir necha professoru akademiklar bo'lgan oilaning suyuqli kuyovi emish. «Zamonaviy» boshlig'imizga taqlidan ikki oylik o'g'ilchasining suratini stolining

to'riga mehr ila joylashtirganki, bu yana bir bora uning kerak-nokerak qoidalarga nechog'liq amal qilishini isbotlaydi.

Ikkinchisi esa ijod ahliga eng yaqin hamkasbimiz – Umarjon. Uning ushbu ahliga yaqinligi uzluksiz «ushlanib qolishlari» va doimiy ravishda qo'l telefoni, CD-pleyyer, fotoapparat kabi o'yinchoqlarini tez-tez yo'qotib yurishi bilan ifodalanadi. Umarjonning aynan o'n birlarga yaqin xonaga tirjaygancha bir taxtashokoladmi, ikki pachka pechennimi, uch dona yogurtmi, to'rtta muzqaymoqmi ko'tarib kelishi sabab, biz uning erksevarligini hech og'rinmay kechiraveramiz. Tungi klub, kafeyu restoran, dam olish maskani, konsert zali, artistu shoirlar, yugurdagu nozirlar va ular barchasining «narx-navosi» bo'yicha mutaxassis, shaksiz, Umarjondir. Faridaning qizlari boqqan ti pratikan olamdan o'tganda bo'limimizda uning hazilakam «qirq»ini o'tkazgan ham, akvaparkda «Elbrus» kompaniyasining yillik korporativ kechasini tashkil etgan ham shaxsan o'zlari. Ammo Umarjonning bitmas-tuganmas fazilatlarining eng a'losi, u mashhur marketolog, O'rta Osiyoda dong'i ketgan reklama agentligining rahbari Aliboyevning tug'ishgan ukasi ekanligidadir, deb biz qizlar yigitlarning sarasini yerga uramiz.

Firmamiz nizom jamg'armasi kattagina bo'lgan qo'shma korxonaning ijtimoiy bo'limidan o'sib chiqqan sho'basi bo'lib, marketing – ilmiy tekshirish ishlari bilan shug'ullanadi, ya'ni do'konu bozorlar peshtaxtalaridagi mahsulotlarning xaridorgir bo'lishi uchun qanday sifatlarga ega bo'lishi lozim, degan masala ustida bosh qotiradi. Bu masalani oldimizga qo'yishi kerak bo'lgan shovvoz tadbirkorlar topilmaganda firmamiz taqdimot, har xil yig'inlarni tashkil etish, vositachilik kabi faoliyat turlari orqali birini ikki qiladi.

Ba'zan Umarjonning akasi o'zining qozonidagi yog'li palovdan ukajoni ishlaydigan firmaga ham bir-ikki osham uzatib turadi. Bultur bizga tortiq qilingan buyurtmaga ko'ra, choy ishlab chiqaruvchi Osiyo yo'lbarlaridan bo'lgan bir kompaniyani «xush keling» deya kutib olib, unga mahalliy bozorimizning to'ridan joy ko'rsatganmiz. Ushbu reklama aksiyasi doirasida «hay-hay»lab so'rov o'tkazilgani sizning ham yodingizda bo'lsa kerak. O'shanda shahrimizning eng nufuzli supermarketlariga talabalarning eng chechanlari ichidan uyatchanlik, tortinchoqlik, kamtarlik kabi fazilatlariga ega bo'lmaganlar tanlab olingan edi. Menda ham o'sha sifatlarning taqchilligi kuzatilganligi sababli, rosa bir oy odamlarga

tekin choy ulashganman. Evaziga, keyinchalik bilishimcha, Faridaoy tuzgan so'rovnomalardagi savollardan berib, choy-xo'rlarning boshini rosa qotirganman. Tadbirdan so'ng stipendiyamdan bir necha barobar ko'p bo'lgan mo'maygina pulni olib endi bozorga borishni rejalashtirayotganimda, Natasha stolda uyulib yotgan so'rovnomalarni qutilarga joylarkan, ertadan boshlab yig'ilgan ma'lumotlarni kompyuterga kirgizishga yordam berishimni so'rab qoldiyu o'sha-o'sha shu yerlarda o'troq bo'lib qoldim. Ya'ni tasodifan... Ammo hamma tasodifning ham o'z qonuniyati bor, shundaymasmi?

Mening firmaga bunday «tasodifan» kelib qolishimning sababchisi – Umarjon. Gap shundaki, Umarjon bilan talabalar oromgohida ikki yil burun tanishganman. O'shanda u bunaqa lagerlarda topilmaydigan «salyami» kolbasasi va bir bo'lak pishloq ko'tarib ikkita kursdoshi bilan xonamizga kelgan, ertalabgacha biz bilan qartabozlik qilgan edi. Oromgohdan ketish arafasida siyqasi chiqqan tilaklarga qo'shib, bir eshitishda esda qoladigan telefon raqamini ham daftarimga yozib bergan edi...

Tohirning nirvanasi

Bir necha kun avval biz bilan vaqti-bemahal hamkorlik qiladigan Shoyim ismli ashulachi yigit o'zining konsertiga to'rtta taklifnoma tashlab ketgan edi. Men sessiya arafasida turgan odamman – o'zi ishga arang borib-kelib yuribman, G'olib xizmat safarida, Umarjon shu konsert prodyuserining yordamchisimi, yordamchisining yordamchisimi, xullas, konsert o'ziniki bo'lib ketganidan oylik hisobotini bitirib qo'yishni afzal ko'rdi.

Kecha soat oltida boshlanadigan konsertga kechikmaslik uchun Tohir bilan ertaroq chiqib ketayotganlariga suqlanib qarab qolganimni his etgan qizlar, soat o'n bir bo'lganini sezmagandek, stollarini boshlaridan, yo'g'-ey, boshlarini stollaridan ko'tarishmaydi. Boshlig'imiz ham joyidan jilmaydigandek. Shunga qaramay o'zim gap otdim:

– Qalay kecha... qalay bo'ldi konsert?

– Tuzuk. Asal, shakar, qand bo'lib fonogrammaga tushib turdilar ishqilib, – deb po'ng'illadi Farida boshini ko'tarmay.

– Taxir mexmon kildi bizni. Bufet kechani provaldan sakladi, – deya gapga qo'shildi Natasha, boshlig'imizga ko'z qirini tashlarkan.

– Konsert juda kuchli bo‘ldi, – dedi Tohir, sport atrofida yurgan kezlaridan qolgan odati bo‘yicha «kuchli» so‘zini barcha mavjud sifatlar o‘rniga ishlatib. – Sizlarga faqat bironi tanqid qilish bo‘lsa...

Suhbat bo‘linib qolmasligi uchun so‘rovimni davom ettirdim:

– Tanish-bilishlarni uchratmadinglarmi?

– Yo‘q, asalim, uchratmadik. Lekin Tohirning tanishlari ko‘p ekan, ular zerikmadilar, – dedi Farida. So‘ng sekingina qo‘shib qo‘ydi: – Bir ikkita ishini ham bitirib oldi, shekilli, bahonada.

Shu payt telefon jiringlab Tohirni direktorimiz chaqirib qoldiyu, u bir-ikki daqiqa burun oldiga qo‘yilgan qahvasini ko‘tarib, li pillagancha eshikka ravona bo‘ldi.

Natasha choynakdan piyolasiga dog‘ suv quyarkan, hiringladi:

– Bizni kennayishka zeriktirmadi.

– Qalay ekan xotini? – deb so‘radim gapning eng qizig‘i endi kelishini sezib.

Shu paytgacha indamaygina o‘tirgan Umarjon erinib o‘rnidan turdi-da, bizga kulimsirab qaradi.

– Vauv! Til gimnastikasi boshlandimi? – deya sekin narsalarini yig‘ishtirishga tushdi. – Ertalabdan gunohga botmasdan, я пошёл в типографию.

«Qachondan beri?», «kecha hijobga kirgan qiz bilan svidaniye qilgan bo‘lsa kerak», «kimga ertalab, kimga kunning yarmi» deganimizcha, uni xonadan chiqarib yuborganimizdan so‘ng, Farida suhbatimizni chala qolgan joyidan davom ettirdi:

– Kelishgangina, kiyinishi ham sipogina. Rostini aytsam, kindigini ochib yuradigan oyimcha bo‘lmasaydi, deb qo‘rqib turuvdim. G‘arblashuvning oilaga ta‘siri juda sust bo‘pti. O‘zimizdan ham oddiy, soddagina, shiringina juvon ekan.

– Ishqilib, Tohirni sizlardan rashk qilmadimi? – deya yana so‘rog‘imni davom ettirdim.

Natasha boadab ohangda o‘zining takabburona mulohazalari bilan o‘rtoqlasharkan, fikrini tuzukroq tushuntirish uchun o‘z ona tiliga o‘tib oldi:

– Rashk bu – gumon, bu – shubha, – dedi u, ko‘rsatkich barmog‘ini nayza qilib. – Gumonsirash va shubhalanish esa – ko‘p amalli masala kabi murakkab... Uning protsessori buni ko‘tara olmaydi. Tavba... Mening Slavigimniyam so‘z boyligi unikidan ko‘proq.

Slavik – inglizcha ashulalarni hali tuvakda o‘tiradigan paytidanoq xirgoyi qilib aytadigan Natashaning besh yashar o‘g‘li. Bu bolakayning har qaysi ona ham g‘ururlansa arziydigan besanoq xususiyatlaridan biri – kinofilmlar qahramonlarining og‘izlaridan chiqqan iboralarni kundalik nutqiga mohirona tatbiq etishidir.

– Buning soddaligidan Tohirni yorilib o‘lmaganiga hayronman, – deya davom etdi Natasha. – Bir yaxshiga – bir yomon deganlari shu bo‘lsa kerak...

– Ha endi, ishxonadagi intellektual xonimchalar unga yetib ortsa kerak-da. Bizdan charchagan paytlarida shunaqa asal xotin bilan Nirvana holatiga tushib o‘tiradi, – dedi Farida, har doimgidek Natashaning fikriga qo‘shilmay. Keyin men tomonga rosmana o‘girilib oldi. – Zulya, shakarim, bilasizmi, ular o‘tgan oy Turkiyaga borishganida nima olib kelishibdi?..

Mening qiziqishim ortib, stulimni u tomonga surdim, negaki dono dugonalarimdan (odatda bog‘chadagi qaqajonlar, o‘smirlik chog‘idagi mahmadonalar, yigirmadan oshgan laqqilar o‘ttiz yoshlariga borib o‘zlaridan yoshroq qizlarning dono dugonalariga aylanadi) birining o‘giti yodimga tushdi: «Turkiyadan nima olib kelganingni aytsang, senga kimligingni aytaman». Bu chuchmal maqol, albatta kulgi bo‘lsin, deb aytilgan esa-da, o‘z tajribamda bir necha bor uning naqadar hayotiy ekanini sinaganman. Masalan, Farida Turkiyadan elektr tandir olib kelgan. To‘g‘rirog‘i, erginasi javrabgina, inqillabgina ko‘tarib kelgan. Unga kechqurun masalliqni solib qo‘ysangiz – bo‘ldi, ertalab dasturxonga issiqqina nonlarni tortiq qilaverasiz. Natasha to‘yidan keyingi Anqara safaridan ro‘yxat bo‘yicha kitoblar bilan to‘ldirgan yo‘l xaltasini yelkasiga osib, hech qanday rejalarga kiritilmagan Slavikni qorniga solib qaytgan ekan. G‘olib esa burchagiga o‘z ismi sharifining birinchi harflari kashtalangan choyshab-jildlar to‘plamini xotiniga sovg‘a qilgan. Men esa... Men esa endi jomadon sotib olish taraddudida turgan qizman, hali Turkiyaga bormaganman, ammo Turkiyadan-da olisroq manzillarga ketgim bor...

...– Arabcha ko‘ylak, – dedi Farida qo‘llarini qorniga urib, – Tohir ishdan kelganidan so‘ng «belli dans»ga tushib charchog‘ini olarkan.

– Bir ko‘rishli ekan-da arabcha raqsini, – dedim hayratlanib.

– Ko‘rib bo‘psiz, jonginam! Faqat eri uchun ekskluziv tarzda ijro etilarkan.

– Vohay...

Suhbatimizning shu joyida Tohir har doimgidek mamnuniyat bilan eshikdan kirib keldi-da, gurungimizni beliga tepganidan ko'ngli yanada chog'langanini yashirmay, Umarjonning kechagi hisobotini berilib o'qishga kirishdi.

Qahva mojarosi

Ummon ortidagi ulkan davlat tarixidagi eng katta burilishlardan biri «choy janjali» bilan boshlangandek, bizning bo'limimizdagi yuqorida guvoh bo'lganingiz – Natasha-Farida sovuq urushi ham «qahva mojarosi»dan boshlangan ekan. (Diqqat bo'lmang: qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi deyishganidek, parallellarim ham «g'arbona»).

Natasha o'sha voqeadan keyin Faridani takabburlik va dimog'dorlikda ayblab, ba'zan undan noliydi. Farida ham uni amalparast va xushomadgo'yga chiqargan damlari uncha-muncha dardiga meni sherik qiladi. Men esa u bilan buni, bu bilan uni qarg'ab. ikkoviga ham birday dalda berib turaman.

Shunday qilib, firmamiz endi tuzilgan davrlarda birinchi bo'lib Tohir bilan Natashani ishga olishgan ekan. Ikki-uch oylardan keyin Farida ishga yollanibdi. Bir-ikki hafta yangi sharoitga ko'nixsin. ishga o'rgansin, deya xayol qilgan Tohir yangi xodimga jiddiyroq topshiriq bermay, bo'sh vaqti boshqalarnikidan ko'proq bo'lgani sababli Faridadan dam-badam qahva tayyorlab berishni iltimos qilaveribdi. Hamkorlarimiz va yangi buyurtmachilar bilan olib borilgan muzokaralar chog'ida ham usiz gurung to'xtab qolmasligini inobatga olib, goh qandaydir qog'ozni olib kelish uchun hisobxonaga, goh mineral suvi uchun oldimizdagi do'konga yugurtiribdi. Farida «bechora» bunday «qora» ishlarni bir qilibdi, ikki qilibdi, oxiri ularning adog'i bo'lmasligini tushungach, bir kun ertalab Tohirning oldiga navbatdagi qaynoq qahva bilan birga keskin ultimatum qo'yibdi:

– Bilasizmi, Tohir, men universitetda qahva pishirish yoki yugurdaklik qilish uchun o'qimaganman. Bunaqa ishlarga marhamat qilib boshqa odamni ishga yollasangiz, – debdi.

Boshlig'imiz (Natashani aytishicha jahl bilan, Faridaning aytishicha hayron qolib, Umarjonning aytishicha vazminlik bilan):

– Bizda unaqa shtat yo'q, – deb javob beribdi. – «Ti-go'l» olishga kuchimiz yetmaydi. (Inglizcha «tea-girl», ya'ni choy

damlovchi qiz. Bu so'zdagi «g» harfini o'rischa «gol» so'zidagi «g» emas, balki o'zbekcha «gul» so'zidagi «g» tovushi bilan talaffuz qilishni yodingizdan chiqarmaningiz bas.)

– Bo'lmasa, oyligimdan ellik ming qirqib oling-da, mening hisobimdan yollang o'sha «ti-go'l»ingizni, – debdi, gap nimaga taqalayotganini tushungan Farida ham shartta.

Tohir ozgina o'ylangach:

– Bo'пти, siz bugundan bunaqa ishlardan ozodsiz, – deya kundaligiga bir nimalarni yozib qo'yibdi.

O'sha kundan e'tiboran Tohir o'ziga o'zi qahva damlaydigan bo'libdi, mayda-chuyda ishlar ham reja bilan xodimlar o'rtasida taqsimlanibdi, muzokaralar orasidagi xizmatlar Natasha bilan Umarjonga qolibdi, hech qanaqa «ti-go'l» yollanmabdi, ammo maosh kunlari Farida kelishilganidan ellik ming so'm kam haq ola boshlabdi...

Biroq mening bo'limda ishlay boshlashim bilan bu muammoga uzil-kesil nuqta qo'yildi, desa ham bo'ladi. Ishim choy uzatishdan boshlanganidan so'ng, bir-ikki piyola qahva damlash nima bo'пти endi qiz bola narsaga. Faridaning «hamma ishni bo'yningizga olavermang, shakarim» degan tanbehlariga, Natashaning ma'qullab bosh qimirlatishlariga ham javob topib qo'rganman. Eshiting, o'rganing – bunaqa sharoitda ko'zni yerdan uzmasdan, tanbehnamo ohangda: «Meni shunaqa tarbiya qilishgan. Kattalarni hurmat qilish – ota-bobolarimizdan qolgan odat» deysiz-da, buyurilgan «qora» ishlarni ishtiyoq bilan bajarishga shaylanasiz. Ya'ni yugurib-yelgancha, shoshirinqirab, bir ozgina hayajon bilan barcha iltimoslarga «xo'p bo'ladi»ni kanda qilmay xizmatga kirishib ketasiz. Shunda siz tayyorlab bergan Natashaning qahvasidan, masalan, choy shamasi chiqadi, direktorning oldiga olib kirilishi kerak bo'lgan hisobotga bexosdan siyoh tegib qoladi, do'kondan olib kelgan gazli suvingiz ochilishi bilan ma'danli favvoraga aylanadi. Qarabsizki, bir-ikki haftadan keyin, hech bo'lmasa, ishlarning yarmidan sizni buyuruvchilarning o'zlari ozod qiladilar, cho'ntagingiz ham ellik minglik zarar ko'rmaydi.

Shunga qaramay, Faridaning yo'lidan ketmaganlar, mening taktikamni qo'llashni o'ziga ep ko'rmaganlarga o'rtoqlik maslahatim – barcha buyruqlarni sidqidildan bajaravering. Chunki «mehnat – mehnatning tagi rohat» deb bejiz aytishmaydi. Evaziga muzokaralar paytida hammaga qahva damlaganingizda mehmonlar

uchun sotib olingan qahvadan o'zingizga ham piyolani to'ldirib tayyorlab olasiz yoki shokoladga berilgan pulning qaytimini qarsillatib chaynaladigan saqichga aylantirasiz va hokazo.

Jabru jafolar haqida

Mana shu joyda sizni zeriktirib tabiat manzaralarini tasvirlamasam bo'lmaydi. Negaki muhtaram muharririm muhofazokor fe'li bilan «muhtasham» asaringizda muhim tafsilotlar yetishmayapti» deya o'yinbuzuqilik qiladi, muhaqqaq maslahatlar bilan muallifni muhibona muhitda muhokama etib, tengsiz muhorabalarda iliq so'zga muhtoj qalbini yaralaydi, ya'ni mazkurni muhosara aylagancha, chop etishni muhmal qiladi. (Ba'zan ustozlarimiz ota-onalarimiz, ba'zan hikmatu kitoblar suvratida gavdalanuvchi mavhum «muharrir»larni nazarda tutyapman-da!)

Xullas, masalan, ishxonamiz hovlisidagi qulochga sig'mas daraxtlar, doira shaklida ochilgan egatlarga ekilgan gullaru rayhonlarning chiroyi haqida, hech bo'lmasa, yarim betgina gap bilan sizni uyquga elitishim kerak. Ammo kecha kattakon sumkamni yelkamga ilgancha tabiat va inson mehnatining mahsuli bo'lmish chaman-chaman gullarning hidlaridan sarmast bir ahvolda ko'p qavatli binomizdan ham balandroq o'sishga ahd qilgan daraxtlarni oralab xayolga botgancha ketayotganimda, birdan tanish ovoz eshitildi:

– Hoy falonchi, aytgan ishlarimning hammasini tugatavering, keyin luboy daraxtni kesib olaverasanlar. O'zim ruxsat beraman!

Natijada, manzaralarning tasviri uchun kechalari uxlamay topgan chiroyli so'zlarim go'yo motamda aytilgan latifaga aylandi. Bino ma'murining gulzorga ishlov berayotgan mardikorlarga ikkinchi qavatdan turib bergan bu va'dasi gullarni osmono'par daraxtlarning jallodiga aylantirdi-qo'ydi. Kelishuv shartlariga ko'ra, gullarga qurbon bo'lishi kerak bo'lgan bahaybat daraxtlarning shabadadan bilinar-bilinmas chayqalishini endi titroqqa o'xshatsam, gulzorni ajal aylanmasiga qiyoslasam ham bo'laveradi. Go'yo baland-past idoralardan chiqajak buyruqlar necha yillar davomida qalbimizda ardoqlab kelgan tuyg'ularimizni mayda, ammo maftunkor manfaatlar girdobiga tortib ketayotgandek...

Biroq muqoyasamning nobop chiqqanini qarshimdagi daraxt ham sezdi, shekilli, bir seskandi-yu, tutqanog'i tutgandek

barglarini otib-otib tashladi. Men esa ust-boshimni chang-chungdan asrash ilinjida o'zimni idora eshigiga urdim-da, xonamiz tomon chopqilladim...

...Ba'zi xonalar tor, ba'zilar past bo'ladi; zax, qorong'u, pastak, befayz xonalar ham bor. Bizning bo'limimiz joylashgan xonaga bunday salbiy sifatlar yot, ammo bitta juda-juda katta kamchiligi bor: xonamiz – oynaband. To'rt tomoni devor bilan emas, hozirda reklama qilinayotgan «Akmateks» romlari bilan o'ralgan. Unga xona emas, ayvon degan so'z ko'proq yarashadi, nazarimda. Ayvonda choy ichish mumkin, qo'ni-qo'shni bilan gurunglashish mumkin, ammo yashab bo'lmaydi, albatta. Biz bechoralar esa hayotimizning qoq yarmini ayvonda o'tkazamiz. Na kompyuterda o'yin o'ynab bo'ladi, na «chat»ga kirib bo'ladi... Bekor o'tgan yoshligim-a! Ammo mening «dard»larim, yana aqlli dugonalarim aytganidek, «yuz dollarli» dard ekan. Masalan, koreyslarda uch yuz dollar uchun tarjimonlik qiladigan tanishimning boshlig'i xodimi o'tirgan stolning tepasiga turib olarkan-da, indamay kim nima yozayotganini o'qiy boshlarkan, ba'zan stol ustidagi qog'ozlarni titkilashga kirisharkan. Besh yuz dollar oylik oladigan boshqa tanishim yaponlar bilan ishlaydi. Xabaringiz bor – yapon degani texnikaning jinnisi bo'ladi. Ularning ishxonasida har bir stol alohida videokamera bilan nazorat qilinar ekan. Xudoga shukr, biz bunaqa inkvizitsiyalarni tushimizda ham ko'rmaganmiz. Tohirning maorifchilar oilasidan chiqqanligi, undagi jonkuyarlik, buyruq gaplarga «iltimos»ni qo'shib yumush berishi, vazifalarni aniq va lo'nda qilib taqsimlashi ishimizga puxta bo'lishimizga undaydi. U devorga mixlangan oq doskaga flamaster bilan ishlarimiz rejasini chizadi, yangiliklarni yozib qo'yadi, tushunmaganlarimizni tushuntiradi, navbatdagi loyihani muvaffaqiyatli bitirganimizdan so'ng, minnatdorlik bitilgan sariq varaqlarni yoki ishni pishitilmagan paytlarimizda nasihatlariga to'la ko'k qog'ozlarni osib qo'yadi.

Tohirning demokratligidan men ham unumli foydalanib turaman. Di plom ishimni yozishim uchun kompyuterdan shanba va yakshanba kunlari foydalanishga ruxsat olganman. Har haftaning oxiri idora uskunalari mening shaxsiy manfaatlarim yo'liga xizmat qiladi. Tirikchilikning aybi yo'q – di plom ishi bahona mo'maygina daromad olish maqsadida erinchoqroq, boyroq kursdoshlarimning referatu kurs ishlarini yozib beraman. Yana shaxsan o'zimga tegishli

uchun sotib olingan qahvadan o'zingizga ham piyolani to'ldirib tayyorlab olasiz yoki shokoladga berilgan pulning qaytimini qarsillatib chaynaladigan saqichga aylantirasiz va hokazo.

Jabru jafolar haqida

Mana shu joyda sizni zeriktirib tabiat manzaralarini tasvirlamasam bo'lmaydi. Negaki muhtaram muharririm muhofazokor fe'li bilan «muhtasham» asaringizda muhim tafsilotlar yetishmayapti» deya o'yinbuzuqilik qiladi, muhaqqaq maslahatlar bilan muallifni muhibona muhitda muhokama etib, tengsiz muhorabalarda iliq so'zga muhtoj qalbini yaralaydi, ya'ni mazkurni muhosara aylagancha, chop etishni muhmal qiladi. (Ba'zan ustozlarimiz ota-onalarimiz, ba'zan hikmatu kitoblar suvratida gavdalanuvchi mavhum «muharrir»larni nazarda tutyapman-da!)

Xullas, masalan, ishxonamiz hovlisidagi qulochga sig'mas daraxtlar, doira shaklida ochilgan egatlarga ekilgan gullaru rayhonlarning chiroyi haqida, hech bo'lmasa, yarim betgina gap bilan sizni uyquga elitishim kerak. Ammo kecha kattakon sumkamni yelkamga ilgancha tabiat va inson mehnatining mahsuli bo'lmish chaman-chaman gullarning hidlaridan sarmast bir ahvolda ko'p qavatli binomizdan ham balandroq o'sishga ahd qilgan daraxtlarni oralab xayolga botgancha ketayotganimda, birdan tanish ovoz eshitildi:

– Hoy falonchi, aytgan ishlarimning hammasini tugataverlaring, keyin luboy daraxtni kesib olaverasanlar. O'zim ruxsat beraman!

Natijada, manzaralarning tasviri uchun kechalari uxlamay topgan chiroyli so'zlarim go'yo motamda aytilgan latifaga aylandi. Bino ma'murining gulzorga ishlov berayotgan mardikorlarga ikkinchi qavatdan turib bergan bu va'dasi gullarni osmono'par daraxtlarning jallodiga aylantirdi-qo'ydi. Kelishuv shartlariga ko'ra, gullarga qurbon bo'lishi kerak bo'lgan bahaybat daraxtlarning shabadadan bilinar-bilinmas chayqalishini endi titroqqa o'xshatsam, gulzorni ajal aylanmasiga qiyoslasam ham bo'laveradi. Go'yo baland-past idoralardan chiqajak buyruqlar necha yillar davomida qalbimizda ardoqlab kelgan tuyg'ularimizni mayda, ammo maftunkor manfaatlar girdobiga tortib ketayotgandek...

Biroq muqoyasamning nobop chiqqanini qarshimdagi daraxt ham sezdi, shekilli, bir seskandi-yu, tutqanog'i tutgandek

barglarini otib-otib tashladi. Men esa ust-boshimni chang-chungdan asrash ilinjida o'zimni idora eshigiga urdim-da, xonamiz tomon chopqilladim...

...Ba'zi xonalar tor, ba'zilar past bo'ladi; zax, qorong'u, pastak, befayz xonalar ham bor. Bizning bo'limimiz joylashgan xonaga bunday salbiy sifatlar yot, ammo bitta juda-juda katta kamchiligi bor: xonamiz — oynaband. To'rt tomoni devor bilan emas, hozirda reklama qilinayotgan «Akmateks» romlari bilan o'ralgan. Unga xona emas, ayvon degan so'z ko'proq yarashadi, nazarimda. Ayvonda choy ichish mumkin, qo'ni-qo'shni bilan gurunglashish mumkin, ammo yashab bo'lmaydi, albatta. Biz bechoralar esa hayotimizning qoq yarmini ayvonda o'tkazamiz. Na kompyuterda o'yin o'ynab bo'ladi, na «chat»ga kirib bo'ladi... Bekor o'tgan yoshligim-a! Ammo mening «dard»larim, yana aqlli dugonalarim aytganidek, «yuz dollarli» dard ekan. Masalan, koreyslarda uch yuz dollar uchun tarjimonlik qiladigan tanishimning boshlig'i xodimi o'tirgan stolning tepasiga turib olarkan-da, indamay kim nima yozayotganini o'qiy boshlarkan, ba'zan stol ustidagi qog'ozlarni titkilashga kirisharkan. Besh yuz dollar oylik oladigan boshqa tanishim yaponlar bilan ishlaydi. Xabaringiz bor — yapon degani texnikaning jinnisi bo'ladi. Ularning ishxonasida har bir stol alohida videokamera bilan nazorat qilinar ekan. Xudoga shukr, biz bunaqa inkvizitsiyalarni tushimizda ham ko'rmaganmiz. Tohirning maorifchilar oilasidan chiqqanligi, undagi jonkuyarlik, buyruq gaplarga «iltimos»ni qo'shib yumush berishi, vazifalarni aniq va lo'nda qilib taqsimlashi ishimizga puxta bo'lishimizga undaydi. U devorga mixlangan oq doskaga flamaster bilan ishlarimiz rejasini chizadi, yangiliklarni yozib qo'yadi, tushunmaganlarimizni tushuntiradi, navbatdagi loyihani muvaffaqiyatli bitirganimizdan so'ng, minnatdorlik bitilgan sariq varaqlarni yoki ishni pishitilmagan paytlarimizda nasihatlariga to'la ko'k qog'ozlarni osib qo'yadi.

Tohirning demokratligidan men ham unumli foydalanib turaman. Diplom ishimni yozishim uchun kompyuterdan shanba va yakshanba kunlari foydalanishga ruxsat olganman. Har haftaning oxiri idora uskunlari mening shaxsiy manfaatlarim yo'liga xizmat qiladi. Tirikchilikning aybi yo'q— diplom ishi bahona mo'maygina daromad olish maqsadida erinchoqroq, boyroq kursdoshlarimning referatu kurs ishlarini yozib beraman. Yana shaxsan o'zimga tegishli

bir-ikki rejalarim ham yo‘q emas. Ana shularni amalga oshirishga harakat qilaman. Ba‘zan bu «egri» ishlarimni haftaning boshqa kunlarida qilishga ham to‘g‘ri kelib qoladi. Ana o‘shanda stolimdagi betartiblik nima bilan shug‘ullanayotganimni bekitish uchun asqotadi.

O‘zi mening ish joyimni xonamiz ko‘rkini buzuvchi yagona burchak desa bo‘ladi. Faridaning tartib haqidagi tanbehlari qulog‘imni oldidan shuvillab o‘tib turishiga ahamiyat bermaslik ham yana bir yaxshi-yomon odatlarimdan. Unga «ko‘z tegmasinga bo‘laveradi» deymanu, qog‘ozlarimni stolimning u yog‘idan bu yog‘iga ko‘chirgan bo‘laman.

Menikidan bo‘lak boshqa hammaning stoli batartib, biroz bo‘lsa-da oliftanamo. Har stolda bittadan kompyuter, kichkinagina tuvaklardagi kaktuslardan tashqari, mayda-chuyda haykalchalar, suvenirlar, rasmlar, kalendarlar, qalamdonlar, qo‘l telefonlari uchun tirgaklar, turli xil yo‘riqnomalar, lug‘atlar, kundaliklar, eslatma qog‘ozlar, piyolalar, ularning tagliklari va hokazolar terib qo‘yilgan.

Umarjonning stolidan ayiqning surati tushirilgan yarim litrli pivo krujkasi joy olgan. Odatda bu krujka piyola vazifasini bajaradi. Umarjonning issiq choyni ham, muzdek sharbatni ham shundan ichishiga havasim kelib, uyda dadamning eng yaxshi ko‘radigan pivo bokalga qahva damlab ko‘rmoqchi bo‘ldim. Onamning kuyovlari uchun bekitib qo‘ygan «Carte Noire»laridan bir qoshiq solib qaynoq suv quyganimni bilaman — krujkani tagida avval o‘rgimchak to‘riga o‘xshash chiziqlar paydo bo‘ldi, keyin shisha qurg‘ur muz bo‘laklari singari qirsillab sinib ketsa bo‘ladimi! Mehmonbop qahvaning ham uvol bo‘lgani qoldi. Bilsam, Umarjonning idishi dizaynerlarning oxirgi zarbi — issiqqa ham, sovuqqa ham birday chidamli maxsus qadahlardan ekan.

Faridaning stolida negadir kuldon turadi. Uni ko‘rib qo‘shnimni kashandaga chiqarganim rost, ammo o‘zini chekkaniga hech ko‘zim tushmagan. Ustiga bstak xonamizda chekilmasligini ham bilaman, undan «Chekasizmi?» deb so‘rashga esa tilim bormaydi.

Bir kun to‘qqiz bo‘lmay ishga kelsam, kuldonda dorixona isirig‘i bursiqib tutayapti. Ya‘ni bu kuldon, boshqa millionlab kuldonlardan farqli o‘laroq egasining sog‘lig‘i bilan «men-senga» borishini oldini olarkan...

Farida esa bir qo‘lida «Alcohol 60%» deb yozilgan shisha, ikkinchi qo‘lida paxta — kompyuterini tozalash bilan ovora.

Qarasam, mening kompyuterim ham ancha oqarib qolibdi. Xijolat chekkandan battar ahvolda:

– Voy, Farida, mening kompyuterimni ham siz tozaladingizmi? Men farrosh xotin tozalasa kerak, deb o‘ylarkanman, – deya unga yordamlashgan bo‘lib, qo‘lidagi aroqqa yopishdim.

– Haliyam u tozalaydi, shirinim, – dedi Farida burnini jiyirib. – Ammo shunaqa tozalaydiki, undan ko‘ra umuman qo‘l tegizmagani tuzuk. Bu yerga ishga kelganimda rosa bir oy u bilan xat yozishib kurashganman – foydasi yo‘q. Bugun ertaroq keluvdim, ermakka artib o‘tiribman.

Gap shundaki, farroshimizni kunduzlari kamdan-kam uchratamiz. Men uni maosh olayotganimizda hisobxonamizda birikki ko‘rganman xolos. U bilan bafurja gaplashib olish imkoniyati bo‘lmaganligi tufayli, Farida tanbehlar bitilgan nomalarni doskamizga osib ketadi, ertalab esa javob xati oladi. Farroshlar ham oliy ma‘lumotli bo‘lgandan keyin shu-da!

Lekin Faridaning o‘ziyam tozalikka mukkasidan ketganlardan. «Interkontinental» mehmonxonasining tagidagi restoranda o‘tirganimizda pichoq-sanchqilarni sochiq bilan artganidan so‘ng, unga qanday qilib oddiy ishxona farroshining ishi yoqsin? Menku mayli, lippa urgancha hovlimizga oyoqyalang suv sepib yurgan qizdirman, ammo uning ozodaligi qizlik familiyasi Borxert bo‘lgan Natashaning sarishtaligidan ham oshadi.

Bir kun o‘n birdagi gurunglarimizda Natasha uy ishlariga umuman vaqti yetmayotganligidan nolib, choyshab-dasturxon dazmollashni birovga topshirayotganidan gap ochdi. Men tilimni tiyolmadim.

– Nima keragi bor dazmollashni, ustida yotgandan keyin choyshab baribir g‘ijim bo‘ladi, – deya gap boshladim. – Men hatto tajriba ham o‘tkazib ko‘rganman: mehmonga kelgan jivanlarimdan biriga dazmollangan, ikkinchisiga dazmollanmagan choyshab-jildlar soldim. Ikki kundan keyin ularning qaysi biriga dazmol urilgan, qaysi biriga urilmaganligini kennoyim boshliq ekspertlar guruhi aniqlay olmadi...

Shunday deyishga dedimu tilimni tishlab qoldim. Chunki Farida bilan Natasha menga shunaqangi qarashdiki, hatto ularning ziyolilarga xos tantiliklari ham jirkanishga o‘xshash tuyg‘uni aftlaridan yashira olmadi.

– Dazmol qilingani bilinishi uchun matoni avval teskarisidan, keyin o‘ngidan dazmollash, kerak, jonginam, – dedi Farida

tortmasidan oppoq dokani olib monitorni artarkan. – Bir shunaqa qiling, asalim, farqini ko'rasiz.

To'shak jildlarini ikki tomonidan dazmollash kerakligini ilk bora eshitayotganimni fahmlagan Natasha menga tegishib, savollar bilan jonimni ola boshladi:

– Mikroblar-chi, mikroblar? Kirlarni fakat tekis kilish uchun utyuglamaysiz-ku?

Men yengilim kelmadi:

– Bizda kunlar jazirama, oftobga ilib qo'ysangiz bo'ldi, dezinfeksiya bo'ladi-qo'yadi.

– Kishda-chi?

– O'zbekistonning iqlimi keskin kontinental, qishda kirlarni dorda kechasiga qoldirasiz, bitta muzlagandan keyin mikrobdan asar ham qolmaydi.

– Bahor va kuzda nima qilasisz?

– Nima qilardim, baribir dazmol qilmayman, – dedim o'chakishib. – Organizm ham mikrobu viruslarga o'rganishi kerak, bo'lmasam immunitet pasayib ketadi.

– Xop, kanaka kilib dasturxonni dazmol kilmasdan ishlatisiz?

– Ishlataveraman! Bozor to'la yelim dasturxon. Har qanaqa dasturxoningizdan chiroyli. Kir yuvish kukunini ham ketqazib yotmaysiz.

– Hech bulmasa, rumolchani utyuglasangiz kerak? – dedi Natasha meni yengish uchun zaxiradagi oxirgi savolini ishga solib.

– Kechqurun uxlashimdan oldin boshqa mayda-chuyda kirlarim bilan dastro'molimni ham yuvaman-da, vannaxonaning oynasiga ho'lligicha yopishtirib qo'yaman, – dedim yengilish xayolimga ham kelmay. – Ertalabgacha tekis bo'lib quriydi. Bahonada oynalaringiz ham doim toza turadi, – deb qoimlikni qo'ldan bermadim.

Bu oxirgi javob Natashani mendan ko'nglini butunlay sovutdimi yo men bilan olishishdan hech qanday naf yo'qligini tushundimi, bilmadim, ishqilib, «nichego sebe» deganicha, savollariga nihoya yasadi.

Mister-Tvister – avvalgi ministr

Umuman, mana shunaqa mayda-chuyda dahanaki tortishuvlarni hisobga olmasa, tinch-totuvlikda o'tayotgan kunlarimizning oxiri ko'rinib qolayotgani hech kimning xayoliga ham kelmasdi. Hamma balo direktorimizning o'ziga kotiba yollashidan boshlandi.

Shu paytgacha kotibasiz ham tuppa-tuzuk ishini bitirayotgan direktorimiz – oltmish yoshlardagi, soqol-mo‘ylovlariga oq oralagan, ko‘zoynagini deyarli hech qachon yechmaydigan gollandiyalik amaki. Qachon qaramang, yo katak-katak ko‘ylak, yo katak-katak pidjak kiyib yuradi. Ismi shariflari – Piter van den Hoven. Ingliz tili darslarida miyamizga quyib qo‘yishgan – rasmiy muloqotda kattaroq odamlarning familiyasiga «mister»ni qo‘shib aytish kerak. Ammo uch marta «mister van den Hoven» deb takrorlab ko‘ring, tilingiz uzilib tushay deydi. O‘zi ham bizga o‘xshaganlar bilan ko‘p ishlagan ekan, buni naqadar og‘irligini biladi, shekilli, «meni el qatori Piter, deb chaqiraveringlar» deya otasidan qolgan ismi sharifini buzuq talaffuz qilinishidan saqlaydi. Faqat haydovchisi Anvargina uni mister Piter deb chaqiradi. «Nimaga unaqa deysan, «mister» so‘zini ismga emas, familiyaga qo‘shib aytish kerak», deganimizga ko‘nmaydi. Nimaymish, Piterning xotini unga ish buyurganida: «Mister Piterga uni olib kel, mister Piterga buni berib qo‘y», derkan. Ishqilib, Anvar o‘qiganini emas, uqqanini qilib xo‘jayinni mister Piter desa, uning xotinini missis Elizabet deb ataydi. Xuddi Skarlet O‘Hara davridagi qora tanli qulga o‘xshab...

Biz Piter bilan hadeb gaplashavermaymiz. Tohir uning xonasiga kunda yigirma besh marta kirib chiqadi – shu biz uchun kifoya. Faqat uchrashuvlar paytida Natasha yo Faridani tarjimonlikka chaqirishadi. Xo‘jalik mudiri, bino ma‘muri, qo‘shni kafedan ovqat tashuvchi qiz kabilar bilan bo‘ladigan muloqotlariga tilmochlikni kamina qiladilar.

Shu o‘rinda til masalasiga kelsak, ishxonamizda hisobchilarimizdan tashqari hamma uch-to‘rt tilni biladi. Natasha Buxoroda unib-o‘sgan, u toshkentlik ruslardan ancha ilg‘or – o‘zbek tilida deyarli sizu mendek gaplashadi, ba‘zan Tohir bilan tojikchada ham bir narsalardan olib qoladi. G‘olib bilan Tohirilar ingliz tilida rus tiliday ravon so‘zlashishadi. Ammo G‘olib, bizdan farqli ravishda, o‘zbekcha gaplariga ruscha yoki inglizcha so‘zlarni qo‘shmasdan «oliftagarchilik» qiladi. Umarjonga kelsak, u shahrimizning yoshu qarisi so‘zlashadigan «o‘zrus» tiliga «o‘key», «vauv»larni aralashtirib, duduqlanishni tashlayotgan ikki tilli bedavolardan. Farida unga haftada bir necha marotaba ishdan keyin ingliz tilidan saboq berish evaziga «qahva mojarosi» tufayli vujudga kelgan zararini qoplaydi. Piter esa

yoshi bir joylarga borganiga qaramasdan, til o'rganish ishtiyoqida. Aytishicha, u biz bilan ishlab, o'zbek va rus tillarini o'rgana olmayotgan emish, shuning uchun janobi oliylariga ingliz tilini umuman bilmaydigan, rus va o'zbek tillarida gaplashadigan kotiba kerak ekan. Nima ham derdik? Mijoz va boshliq hamisha haq!

Balki Piter biz bir-birimiz bilan nimalar haqida gaplashayotganimizni bilgisi kelar? Kim bilsin? Kotiba yollash uning ortiqcha hushyorligi samarasi bo'lsa ajabmas.

Piterning ma'rifatga oshno nozik qalbi betakalluflikni ko'tara olmasligi tufayli, idoramizga kiraverishdagi eshikka uning buyrug'i bilan ikki oy burun kodli qulf o'rnatilgan edi. Endi ushbu kodli qulf bizni ko'k-yashil rangli katak-katak xaltalar ko'targan tadbirkor ayollardan, hasharda ishtirok etishga chorlovchi mahalla faollaridan, ish yo'qlab yuruvchi bekor-chilardan, turli xayriya jamg'armalari a'zolarining yurakni ezadigan nigohlaridan, ogohlantirmay tashrif buyuradigan janoblardan, buyurtirilmagan «xonim»u mantilardan asramoqda. «Komfort» degani shu bo'lsa kerak-da!

Oh, Zebi!

Yangi kotiba ishga chiqqan kunning ertasiga mening sessiyam boshlangan edi. Ozroq bo'lsa ham ishlarimni qo'limdan oladigan odam topigani uchun suyunib, talabalik gashtini surish ishuyiqida ikki haftalik ta'til oldim. O'n besh kun o'tar-o'tmas yana qadrdon jamoam bag'riga otilib keldim. Keldimu, ko'p narsalarni tanimadim...

Orzu-havas bilan olingan yangi kelinchak tushgan xonadondagi farog'atli turmushni kuzatganmisiz? Odamlar o'sha-o'sha, — o'sha ona, o'sha ota, o'sha o'g'il, ammo xonalar yangi ta'mirdan so'ng boshqacha bezatilgan, muomalalar o'zgargan, hamma bir-biriga har doimgidan ko'ra ancha mehribonroq, muloyimroq, muzxonayu sovuqxonalar ham o'zgacha to'ldirilgan, ovqatlar go'shtliroq, patirlar yog'liroq, qaynota «qizimga» deb hali o'zlarining og'izlari tegmagan husayni uzumdan olib keladi, faqatgina mehmon kelgandagina pishiriladigan mantilar qasqonda, necha-necha taraddud ila yopiladigan somsalar tandirda, lag'monlar cho'zilgan, chuchvaralar tugilgan, qaynsingil kennoyisini dugonalariga ko'z-ko'z qiladi, qaynona kelinini o'tgan-ketganga maqtashdan charchamaydi.

Xullas, domlalarimning qovoq-tumshug'idan zerikib kelsam—ishxonamizda shunaqa farovonlik. Piterning kabineti bilan bo'limimizni birlashtiruvchi uchrashuvlar o'tkaziladigan xona qayta jihozlanibdi: o'rtada turgan dumaloq stolu kursilar bir chekkaga surilib, endi xona to'rini moviy rang stol, xuddi shunday tUSDagi kursi egallagan, ko'chaga qaragan derazaga yangi chiy pardalar osilgan.

Kotibamiz ham ismlari jismlariga mos — Zebiniso, xonaga zeb berib o'tiribdilar.

Bilasiz, teatr yechinish xonasidan boshlanadi, roman nomidan, idora esa qabulxonadan. Endi bunaqa qabulxonamiz bo'lganidan keyin o'zimizga bo'lgan talabchanligimizni ham oshirish kerak degan o'y bilan kompyuterimni yoqdim. Xonadoshlarimning ham o'z ishlari bilan ivirsib o'tirishganini ko'rib, «Mening hujjatlarim» g'aladonida o'tgan oydan beri yig'ilgan katta-kichik hujjatlarni mavzulariga qarab alohida g'aladonchalarga taqsimlay boshladim.

Bir payt, soat o'n birlarga yaqin Tohirga xat olib kirgan Zebinisoni Farida choyxo'rlikka taklif qildi-yu, xuddi shuni kutib turgandek birdan hamma faollashib qoldi. G'olib «lip» etib o'rnidan turib bitta kursini sudragancha yangi sherigimizni o'tirishga undadi. Yilda to'rt bora ta'tilga bahona bo'luvchi imtihonlarimga shubha bilan qaraydigan Tohir, «Zulxumorning sessiyasini yuvamiz» deya mehmonlarning ardoqlilariga olib qo'yilgan bir quti shokoladning bahridan kechdi. Men esa hayratda atrofga jovdirashni davom etdim. Qarasam, Umarjonning rangida rang yo'q, turishini ham, o'tirishini ham bilmay kursisini bir aylantirdi-da, Faridaning stoli tomon g'ildiratib kelib choynakdagi choyni piyolalarga ulasha boshladi.

Pinagini buzmay ishini davom ettirayotgan yagona odam — Natashaning oldiga cho'kdim.

— Bu qanaqa metamorfoza bo'ldi? — dedim atrofga ko'z yugurtirib.

U endi tanaffus qilmaslikning iloji yo'qligini tushundi-yu, qog'ozlarini bir chetga surdi. Miyig'ida kulgancha, bir qarashda murakkabdek tuyuladigan narsalarni har doimgidek soddagina qilib tushuntirishga kirishdi:

— Savodsizlikni tugatish bo'yicha ma'ruza. Eshiting. Kanaka tushuntursam ekan... Masalan, mana bu kofe, — dedi u chash-

kasidagi qaynoq ichimlikdan ho'plab, asta-sekin rus tiliga o'tarkan. — Ho'v anavi yerda esa bir stakan oddiy xom suv turibdi. Siz, men, Farida go'yo qaynoq qahvadekmiz. Hidlab ko'ring, maza qilasiz. Achchiqqina, uyqusiz kechadan keyingi zapravkaga zo'r ketadi, ishingiz unadi, buning ustiga qandaydir kibor baxsh etadimi-yey. To'g'ri, uchalamiz ham qahvaning har xil navidanmiz, ammo baribir qahvamiz. Bizni hamma ham ichavermaydi, ammo muxlisu shinavandalimiz bor. Sizu mensiz na muzokara bitadi, na biror shartnoma tuziladi. Bizsiz kutib olingan mehmonlar mezbonlarni hurmatsizlikda ayblashadi. Qahvaxo'rlar ham chin ko'ngildan bizsiz kun kechirib bo'lmaydi, deb o'ylaydilar. Lekin keyingi paytda qahvaning turi ko'payib ketdi, ayniqsa, ishxonalarni biz kabi «qahvaxon»lar, ya'ni tili ham, oyog'i ham birday chaqqon, uddaburon ayollar bosib olgan. Tushudingizmi? Zebi esa oddiy chuchuk suvdek. Hamma uchun kerak, ammo odatiy ichimlikka aylangan qahvaga endi bepisandmiz, chunki shahrimizda topilmaydigan obi-hayot— shaffof buloq suvidan simiryapmiz...— deya qahvadan ho'pladi. So'ng:— Siz kuring, sizga xam yokadi! — deb o'zbekchada gapini tasdiqladi-da, yana ishga ko'mildi.

Nima ham derdim, Natashaning bunaqa ma'ruzalaridan so'ng savol ham tug'ilmas bo'lib ketadi. Uning mantiqiy fikrlarini hazm qilishga ulgurmay, Tohir tortiq etgan shirinlik tarafga ravona bo'ldim-da, qutidagi shokoladlarning yong'oqlisidan tanlab, og'zimga soldim. Farida dasturxonimizning yagona nozu ne'matidan bittasini olib Zebiga uzatdi.

— Olavering, jonim, uyalmang! Tohirning davrida sizni semirtirmasak bo'lmaydi, — dedi u.

— Yigitlarimiz xatdan og'irroq narsani ko'tara olishingizga shubhalanishyapti shekilli, kursilargacha ko'tarib kelishdi-ya! Oling, kuch bo'ladi. — deb men ham uni takalluf bilan dasturxonga taklif etdim. Taklif etdimu, negadir nigohim Zebining oyoqlariga tushdi.

«Dushman oyoqqa qarar» degan qadimgi bid'at xayolimga kelib, uning qoshiqdek oyog'idan ko'zimni olib qocharkanman yigirmadan oshib qolgan akamga buvimning bergan o'gitlari yodimga tushdi. «Uylanishdan oldin qizlar bilan uchrashganingda avval oyog'iga qara — oyoqlari do'mboqqinasidan tanlagin», — derdi buvim. Akam: «Nimaga?» deb so'rab menga ko'zini qisardi. Urush davridagi ocharchiliklaru kambag'alchilikni ko'rgan buvim bechora:

«O'shnaqa qizlar sog'lom bo'ladi, hali u yog'im og'riyapti, hali buyog'im sanchiyapti deb yotvolmaydi. Etagidan tushgandek menga qo'sha-qo'sha evaralar tug'ib beradi-da», — deb jiddiy javob qilardi. Akam esa «Buvi, qiziqsiz-a, xuddi sigir xarid qilayotganimdek gapirasiz!» — deya qizarinadi. Shu payt men ham tilimni tiyolmay akamni jig'iga tegish uchun: «Aka, meni ham uchrashuvga olib boring, siz uni oyog'iga qaraysiz, men biror narsa deb kuldiraman-da, og'zini ochganda tishlarini sanab olaman» deb hirlingardim. Buvim: «Sizlarga pachavalik bo'lsa», degancha javranib turib ketardilar.

Demoqchimanki, Zebiniso buvimning o'lchovlariga umuman mos kelmaydigan nomzodlardan, ya'ni haddan tashqari ozg'in. Shu kamchiligini inobatga olmaganda o'n to'qqiz yashar qiz uchun yarashqlik jamoli bor: sochi uzun, qoshi qalin, ki prigi yoy va hokazo. Yigit bo'lganimda tuzukroq tasvirlardim, albatta. Ammo uning jildirama ovozi, seriallardagi aktrisalarimizga o'xshab shirinshakar gapirishi, ba'zida qo'shni xonadan eshitilib qoladigan jarangdor kulgisi hatto mendek hissizroqlarning ham ko'nglini ko'taradi.

Bir-ikki oy burun Qashqadaryoning bir tumaniga Gollandiyadan olib kelingan parmalov uskunasi jo'natgan edik. O'shanda xaridor firmaning bosh hisobchisi u-bu ishlarni hal qilgani kassir juvon bilan Toshkentga kelishgan edi. Kassir opamiz qachonlardir Toshkentda o'qigan ekan, juda madaniyatli — hatto ko'rinishidan o'zi bilan baravar sherigiga «Bo'riboy Jo'raqulovich» deya murojaat qiladi. Bo'riboy Jo'raqulovich qurg'ur esa uni «Jildiz» deb kuydiradi. U bir-ikki marta bizning oldimizda ham «jildiz»lab yuboruvdi, bechora juvon unga iltijo bilan:

— Bo'riboy Jo'raqulovich, hech bo'lmasa, shu yerda ismimni to'g'ri talaffuz qiling, — deya yengidan tortdi.

Men o'zimni eshitmaganga soldim-da, uskunaga servis xizmati ko'rsatish va ehtiyot qismlarni yetkazib berish bo'yicha qo'shimcha shartnomaning ilovasiga kiritilishi kerak bo'lgan o'zgartirishlarga ko'milganicha, ishimni davom ettiraverdim.

Farida esa taqir-tuqurini to'xtatib:

— Qo'yavering, Yulduz opa, Tohirga yoqadigan qilib gapiryaptilar shekilli, — dedi. Keyin unga hayronomuz termilgan hamkorlarimizga javoban: — Yulyani g'arbchasiga Juliya deb talaffuz qilishganidek, akam ham sizni Julduz derkanlar-da. Hamma

shevaning o'ziga xos latofati bor, buning ustiga Jildiz so'zining energetikasi kuchliroqmi-ey, «stilniy» ism bo'lib qolarkan, — deya luqmasiga izoh berdi.

Haqiqatan ham shevalar tilni ko'rkamlashtiradi. Bilasiz, Toshkent «votti»laydi, yana «kelavuza-ketavuza» deydiganlar ham uchrab turadi. Keyingi paytda sovchi kutayotgan qizlaru xizmat muddati ikki yildan oshmagan kelinlar orasida urf bo'lgan, undoshlarni bir qadar yumshatib gapirish odati bilan mana shu «vuza»lari Zebining tiliga xushohang soddalik baxsh etadi.

Uning haddan ziyod yumshoq harakatlari, piypalanib harf terishi, nazarimda, o'ziga qarashga ham erinib, yuzu ko'zlariga bo'yoq-upa surmasligi, sochlarining tabiiy rangi, hamma gaplarini o'ylab, shoshmasdan tuzishi, zaharxanda xitoblar, kinoyali savollar, tagdor javoblardan yot suhbatlari, to'g'risi, meni zeriktiradi. Ammo erkaklarimizning bu boradagi fikri o'zgacha, jumladan, yigitlarning oldi — Umarjonning Zebiga nisbatan mehrini ayni shu holatlar tovlantiradi.

Zebining fe'lidagi meni haqiqatan ham o'ylantirgan, kitoblarda albatta, ijobiy deb ta'riflanadigan, ammo hayotda ko'pincha ko'ngilsizlikka olib keladigan xislati, bu uning haddan ziyod rahmdilligi edi. To'g'ri rahm-shafqat yaxshi narsa, ammo u kuchlilarga ko'proq yarashadi. Zebiga o'xshaganlarning rahmdilligi esa, afsuski, ko'pincha ko'ngilbo'shlik, deb ataladigan illat bilan yonma-yon yuradi.

Ishonmaganlar uchun misol ham keltiraman. Aytganimdek, sessiyadan kelishim bilan har qadamda o'zgarishlarga duch kelaverganimdan, stolimdagi piyolamning oppoqina bo'lib irshayib turganiga ahamiyat bermabman. Ertasiga ham, indiniga ham piyolam xursand, «ketkazib bo'lmaydi», deb hukm chiqarilgan dog'lardan qutilganidan o'ziga o'xshamay mag'rurlanadi. Bu — bir paytlar ofis jihozlarini spirt bilan artishga o'rgatgan qo'shnimning kirdikori ekanligiga shubhalanmay gap qotdim:

— Piyolamda qadrdon qit'amning surati ko'rinmay qopti-ya?

Farida avval piyolamga tikildi, keyin qabulxona tomonga qarab mamnun bosh irg'adi.

— Rahmatini, asalim, Zebiga ayting. Iloji bo'lsa, butun bo'limimiz nomidan, — dedi u esnog'ini qo'lidagi qog'oz bilan yoparkan. — UZR, kecha kichkinamning isitmasi chiquvdi, biror soat uxladimmi-yo'qmi bilmadim...

Qizining nima uchun shamollagani, qanday muolajalarga giriftor qilinganligi haqidagi to'liq ma'lumotni olganimdan so'ng, qabulxonaga o'tdim.

Zebi ba'zan kechqurun yettilardan keyin ham Piterning xizmatida bo'ladigan Anvarning «overtaym»larini hisob-kitob qilayotgan ekan. Qarashish bahonasida oldiga kelib o'tirdim. Yumshoqqina kursiga joylashganimcha, kompaniya elektron to'ridagi umumiy papkadan kerakli uslubiy shakllarni topishga ko'maklasha boshladim.

– Ehtiyot bo'ling, Anvar ham uyali kompaniyalarga o'xshab vaqtni o'zini foydasiga yaxlitlaydi, – dedim, yaqin o'tmishda mening vazifalarim doirasiga kirgan qog'ozbozlikning ba'zi nozik jihatlariga e'tibor qaratib.

Zebi shoshmasdan «overtaym» formasiga ma'lumotlarni kiritgach, gapimga javob berishga marhamat qildi:

– Shu millioner kompaniyalarning mushugini hech kim «pisht» demyoпти-ku. Anvar bechorayam to'qqiz-o'ngacha ishlarkan. O'tkan hafta xo'jayinni o'g'lini kechasi uchda aeroportga kuzatib qo'yibdi. Bechoraga bir-ikki so'm pul ko'proq yozilsa, hech narsa qilmas.

– O'zingiz bilasiz, – dedim sabr bilan Zebiga yo'l-yo'riq ko'rsatishni davom ettirib. – Ammo oyning oxirida Natasha har bir tiyin uchun jonimizni oladi. Telefonga ham ehtiyot bo'ling, barcha qo'ng'iroqlar nazorat qilinadi. Yangi yilda Namangandagi buvimga telefon qiluvdim, oyligimdan tiyinigacha qirqib olishibdi. Bizda nemischa tartib o'rnatilgan... – Kuchim boricha ogohlikka da'vat qilib, maqsadga ko'chdim: – Zebi, bilasizmi, birovlarining orqasidan idish-tovoqni yuvib yurishingiz ham shart emas. Baribir hech kim rahmat aytmaydi. Vaqti kelganda xushomadgo'ylikda ham ayblashadi. Nima qilasiz, og'rimagan boshingizni og'ritib?

U bu gal kuttirmay savolimga savol bilan javob berdi:

– Kim etti sizga mani idish yuvvotganimmi?

– Bizda miss Marpllar ko'p, – dedim uning xomush tortayotgan chehrasiga sinchkovlik bilan qarab.

Zebi yuziga tushib qolgan sochlarini lak ko'rmagan uzun barmoqlari bilan astagina to'g'irlarkan, o'zini oqlayotgandek mungli bir ohangda tushuntirishga kirishdi:

– Anaqa, bir kuni sakkiz yarimgacha sho'tta qolib ketuvdim...

– Tushunmadim, nima Piter sizni to'qqizgacha olib o'tiribdimi hali? – deb darrov gapini bo'ldim.

– Yo‘g‘-ey, – dedi u qo‘lini siltab, – o‘zim... Kechqurunlari bitta... bitta... xullas, yigitim olib ketadi. Ishi ba‘zida cho‘zilib ketadi. Kutishga to‘g‘ri kelib qoladi-de, – deya davom ettirdi u endi qizishib, to‘g‘rirog‘i qizarib. – Bekorchilikdan zerikib o‘tiramanmi?.. Gap bundayammas... Silani xoneyladagi doska bor-ku, haligi Tohir e‘lon uchun degan... O‘ shatta o‘sha kuni qog‘oz osig‘lig‘ turgan ekan. Nimaykan, deb borib o‘qisam, Farida Dilya opamga xat yozib qo‘ygan ekanlar.

– Qaysi Dilya opa?

– Farroshimiz-de. Xatlari sal qo‘polroq ekan. Dilya opam xafa bo‘lmasinlar deb cho‘ntagimga solib qo‘ydim. Mana shu savil idish-tovoq ustidan ularning endi urishishi qoluvdi. O‘zi ikkovlariniyam birinchi kundan biram yaxshi ko‘rib qolganman.

– Ey, qiziqmisiz, Zebi! Bular xuddi nikohdan keyin chillasida bir-birini suymagan er-xotindek urishmasdan turolmaydi. Faridani xati qo‘pol bo‘lsa, Dilya opangiz ham yuvoshlardan emas.

– Shunaqa-yu, ammo ko‘p qiyinchilik ko‘rgan ekanlar. Ularam oliy ma‘lumotli, «iniyaz»ni bitirgan ekanlar. Eshitgandirsiz, ikkita bola bilan beva qolganlarini? Ro‘zg‘or bilan o‘ralashib tillar ham eslaridan chiqqan ekan. Uni ustiga, akalari olamdan o‘tgandan keyin, ikkita jiyanlari ularga qolibdi. Hozir to‘rtta bolani yedirib-ichirishning o‘zi bo‘ladimi? Kunduzi kafeda oshpazlik qilarkanlar, keyin kechqurun buyoqqa jiyanlari bilan kelib supurib-sidirisharkan. Endi o‘ziiz o‘ylab ko‘ring, ularga faqat bizani dashnomlaruvuza kamlik qivatuvdi!.. Faridayam ikkita bolasi, uy-joyi, buyoqdagi ishlar bilan charchasalar kerak, uni ustiga yakshanba kunlari qaynonalarining uyiga uborka qilgani borarkanlar. Xullas, ikkalasiniyam asabi buzilmasin degandim-de...

Shuncha paytdan beri bilmagan tafsilotlarni eshitarkanman, endi Natashaning karomati ro‘yobga chiqayotganini sezaman. Oh, Zebi! Tabriklayman! Firmamizning «eng yosh xodimasi» lavozimini senga bo‘shatganimga qanchalik achinmay, baribir, men ham eriyapman, shekilli...

«Kinder-syurpriz»

Keyingi paytda Umarjon namunali xizmatchiga aylanib bormoqda. A‘lochilar taxtasi bo‘lganda, rasmini osib qo‘yishga to‘g‘ri kelardi. Ishga vaqtida keladigan odat chiqargan. Hatto Tohiming qoidalariga bepisandlik bilan yondashgan holda ishda oltidan keyin

ham qoladi. Bo'sh qoldi deguncha G'olibni oldiga qo'nib bir narsalarni maslahatini qiladi. Albatta, hammasiga sabab – Zebiniso. U buni birovdan yashirgani ham yo'q, yashirolmasdi ham, negaki bu chapani yigitning ichidagi doimo – sirtida. Uning Zebini ko'rishi bilan ochilib ketishi, Zebi ko'rinmay qolishi bilan o'rmda o'tirolmay, qabulxonaga qarab xayol surishi hech kimning e'tiboridan chetda qolmadi. U go'yo ortiqcha harakati bilan qizni xafa qilib qo'yishdan qo'rqayotgandek o'zini tutadi. Zebining e'tiborini qaratish uchun hazil-mutoyiba qilishga urinadi, ammo avvallari tabiiy, haqiqatan ham kulgili chiqadigan gaplarni avaylab qog'ozga o'ragani oqibatida luqmalarining tuzsizligidan esnoq tutadi.

Endi muhokama qilinadigan yagona mavzu – Zebi bilan Umarjon. Ularning bir-biriga naqadar mosliklari, Umarjonning boy kuyovligi, unga aynan Zebiga o'xshagan xotin kerakligi, ammo, afsuski, qizning yigiti borligi va ushbu oxirgi faktni bechora Umarjonga bir balo qilib aytib qo'yishimiz lozimligi, yangilikni oshkor qilganimizdan keyin uni qanaqa yupatishimiz mumkinligi haqida bahslarga to'la suhbatlar quramiz.

Oxiri bir kun Majnunimizni o'rtaga oldik. «Bo'lsa kerak», «o'xshab turibdi» kabi murakkab fe'llar bilan Farida gapni uzoqdan boshladi. Umarjon stolni barmoqlari bilan chertib biroz indamay uning gapini eshitdi. Keyin:

– Bilaman, – deganicha u gapni bo'ldi.

Hammamiz ajablanib uning og'ziga tikildik.

– Nima qilibdi? Zebining yigiti bo'lmasa, hayron bo'lish kerak edi. O'zinglar ham uni yoqtirasizlar, shunaqami?

Biz hamkasbimizning yuragini kengligidan foydalanib, savolga tutdik:

– O'zi ko'nglingiz bormi unda?

– Konechno! Juda bor-da!

– Gaplashaylikmi u bilan?

– Vi chyo! Esinglarni yebsizlar.

– Nima qilasiz bo'lmasa?

– Bilmadim.

– Yigitini ko'rmadingizmi?

– Ko'rdim.

– Qanaqa ekan?

– Obbo! Bo'ldi endi, iltimos! Bir kami uni ta'riflashim qoluvdi.

Kinder-syurpriz. Ponyatno? – deganicha xonadan chiqib ketdi.

Shu-shu, Zebining biz ishdan jilgandagina paydo bo'ladigan yigitiga «kindir-syurpriz» degan laqab yopishdi.

Pul masalasi

Kunlar bir-biridan o'zay deb chopishdan to'xtamaydi. Ikki haftadan keyin — Yangi yil. Orada men ham unashtirilgan qiz maqomini olganman. Romanim sovcilar yozgan senariy asosida ketayotganligi sabab, unda na burilishlar, na chetga chiqishlar bor. Kuyov yangam va oyim tomonidan har tomonlama o'rganilgan, mashinasi yo'qligidan boshqa birorta ko'zga ilinarli kamchiligini topolmaysiz. Dadamning «hazilni sal kamroq qil», degan nasihatlariga rioya qilish ilinjida odobli qiz rolga kirib ketganman. Dastlabki «xola-xolakasi» o'yinlaridan bir amallab o'tib olsam, u yog'i bir gap bo'lar. Oldindagi marosimu yig'inlarni o'ylaganim sari, negadir, ko'nglimga g'ulg'ula tushadi. Dono dugonalarimning «to'y oldi sindromi»ga yo'liqibsan», deya yupatishlariga qaramay, kunlar o'tgan sari g'ulg'ula o'rnini «alamli qayg'u» egallayveradi...

Ishxonamizda ish qizg'in. Yil yakuni bilan bog'liq yugur-yugurlarga endi yangi yil oldi bazmiga taraddud ham qo'shilgan. Har yil Piter 25-dekabr — Kristmasga yurtiga jo'nagani uchun bazmimizni boshqa ishxonalardan ancha avval o'tkazamiz. Bulturgi noxushlikdan so'ng, u bu yilgi bazmni ishxonamizning tor doirasida o'tkazish taklifini kiritdi.

O'tgan yilgi noxushlikning tarixi uzoq o'tmish bilan bog'liq. Yuqorida tilga olganimdek, firmamiz o'rta biznesga taalluqli qo'shma korxonaning arzandasi, ya'ni sho'basi. «Ota»mizning esa bir nechta «aka-uka»lari bor. Ba'zilari tug'ishgan, ba'zilari o'gay, ba'zilari umuman tutingan.

Korxonalarining bu sulolasiga o'tgan asrning oxirlarida ikkita o'rtamiyona xorijlik va bitta boyvachcha o'zbek «Birbalo-Farm» qo'shma korxonasini tuzish bilan asos solishgan. Korxonalar, ya'ni to'ng'ich farzand dori-darmon sotish bilan shug'ullanaverib, o'zini o'nglab ketganidan so'ng, ular yana bitta korxonalar tuzishga qaror qilishadi. Bu safar ishlab chiqarishga pul tikib ko'rishmoqchi bo'lishadi-da, sharbat ishlab chiqaruvchi «Birbalo-Fruits» degan bir firma tashkil qilishadi. Uning ham ishlari yurishadi. Sekin-asta ularning «Birbalo-Net», «Birbalo-Layn» ismli ukalari tug'iladi. Farzandlarning ro'zg'orlaridan ortib yig'ilgan pulga endi «Birbalo-Bank»ning aksiyalari sotib olinadi. Keyinchalik «Birbalo-Servis»,

«Birbalo-Trans», «Birbalo-Sug'urta», «Birbalo-Plast» kabi nevaralar dunyoga kelaveradi. Ular ham o'zlaridan ko'payib «Birbalo-Non», «Birbalo-Art» kabi chevaralarni tarbiya qilishadi. Hatto «Birbalo-Fond» degan xayriya jamg'armasi, «Birbalo-Kast» nomli madaniyat uyi ham bor. Bu serurug' sulolaning nomi esa endi «Birbalo – Korporeyshn».

(Agar xodimlarimizning g'iybati o'rtasida jonajon firmamiz faoliyati to'g'risida bergan ma'lumotlarim sal to'laroq bo'lganda edi, ishxonamizning eshigi chekkarog'iga osilgan peshtaxtani o'qimayoq, «Birbalo-Servis» uchun qo'limizdan kelgancha mehnat qilayotganimizni tushungan bo'lardingiz.)

Bultur yangi yil arafasida «Interkontinental» mehmonxonasining «Oltin» zalida ushbu sulola ravnaqi yo'lida xizmat qiluvchilarga bazmu jamshid uyushtirilgan edi.

Qadahlar quritildi, dasturxonlar bo'shatildi, o'ynalmagan raqs, aytilmagan maqtovu tilaklar qolmadi, ammo pul masalasi sal chatoqroq bo'ldi. Birlamchi og'zaki kelishuvga ko'ra, o'tirishga sarflangan barcha xarajatlar ishtirokchilar soniga bo'linishi va korxonalar o'zlarining ishtirokchi-xizmatchilari sonidan kelib chiqqan holda, oldindan restoran chiqimlarini pul o'tkazish yo'li bilan to'lab yuborgan korxonaga dasturxon haqini qaytarishlari kerak edi. Qaysidir korxonada zudlik bilan, qaysinisidir erkanlab bazmdan so'ng o'z ulushini uzatdi. Faqatgina to'ng'ich o'g'il «Birbalo-Farm» cho'ntagini rosa kavlagani bilan ichidan biror so'm chiqara olmadi. Tohirning aytishicha, mamlakatimizda so'm erkin ayirboshlanganidan beri, tug'ilganidan imtiyozli konvertatsiyaga o'rgangan korxonaning to'lov qobiliyati keskin susayib ketgan emish. Oxiri «tepa»dagilar bu xarjni, aka-ukachilikning yuz-xotiri, deya boshqa korxonalarga bo'lishib berishdi. Piterning ham yemagan oshiga pul to'lashiga to'g'ri keldiyu, bunaqa korporativ o'tirishlarga bizlarni sudramaydigan bo'lib qoldi.

Shuning uchun bu yil idoramiz Yangi yilni kichikroq qahvaxonada oddiyroq qilib o'tkazadigan bo'ldi. Bo'limimizdagi uzoq tortishuvlardan so'ng xohlovchilar uchun ro'yxatga «plyus bir» formulasi kiritilishiga erishdik, ya'ni har bir xodim o'z hisobidan yana bitta odamni bazmgaga taklif qilish imkoniyatidan foydalanishi mumkin.

Ro'yxatga qaragam, Zebining ismi oldiga ham «plyus bir» deb yozib qo'yilbdi. Maslahat qilgani oldiga bordim — har qalay bunaqa masalalarni kengash bilan hal qilmasam bo'lmas.

– Zebi, yigitingiz bilan kelasizmi o‘tirishga?

– Albatta.

– Pulini o‘zi to‘laydimi?

– Man to‘larmidim, to‘liydi-de. Siz ham kuyovbola bilan borsangiz kerak?

– Shuni o‘ylab turibman, nima qilsam ekan, deb. Taklif qilishga qilaman, ammo pulini ber desam qanaqa bo‘larkin? Biz hali u darajada yaqin emasmiz. Noqulayroq bo‘lyapti.

– Hecham noqulaymas. Tag‘inam sizning haqingizni firma to‘lavotti-ku. O‘zlariga to‘lasalar bo‘ldi-de!

– Ha, shunaqa qilarman... – deya gapiga qo‘shilaman.

Uyga borib ushbu mavzuni endi oila davrasida muhokamaga tashladim. Avval muammomni hech kim tushunmadi. Dadam oyim orqali «Bir o‘zi yuradigan paytlar endi tugadi. Borsa ana kuyov bilan borsin» deb aytirib yuboribdilar. Mening esa battar jig‘ibiyronim qaynadi.

– Nega endi men u uchun o‘n mingni shunday sanab berishim kerak ekan?

– Bo‘lmasam, ayt, o‘zi to‘lasin, – dedilar oyim.

– Qanaqa qilib aytaman? O‘zim yetaklayapman-ku? Hali uni reaksiyasini bilmasam... Balki bormaymizga tushib qolar.

– Bormaymiz desa, bormaysizlar.

– Ana, ko‘rdingizmi, undan ko‘ra, indamay ketaveray, bilib o‘tiribdimi?

– Tentak, dadangni gapini eshitdingmi?

– Eshitdim, – dedim-da, oxirgi marta o‘zim ham qachon ko‘rganimni eslolmaydigan ko‘z yoshlarimni yashirish maqsadida javondan qo‘limga duch kelgan kitobni ochib o‘qishga kirishdim.

Bir payt oldimga «lip» etib bir narsa tushdi. Qarasam – bir dasta pul, eshik oldida esa akam tirjayib turibdi.

– Qaysarlik qilmasdan ol-da, birga o‘ynab kelinglar.

– Rahmat. Singlisidan tezroq qutulish uchun akalar qanday qurbonliklar qilmaydilar-a? – deya irjayib, mehribonimning yuzidan cho‘lpillatib o‘pdim.

Qo‘limdagini sumkamga joylarkanman, o‘zimcha hisob-kitob qildim – oltmish minglik ko‘ylak, o‘n minglik turmak, o‘ttiz minglik tufli, yigirma besh minglik taqinchoqlar: barobar, bir oylik maosh. Shuncha xarajatdan so‘ng «plyus bir»im bilan. to‘yboshilar aytgandek, hashamatli koshonaning ajoyib insonlariga aylanishimiz shubhasiz!

Va'daga vafo qilmaydilar mu?

Mana, mana, mana... Muhtaram muharririmning gapiga kirmay, shaxsiy hayotim haqida ham yozib qo'yibman. Malakasizlik-da! O'quvchini sevishganlardan chalg'itib, o'zi haqida gapirishdan tiyila olmagan laqqi qizning uzrini qabul aylagaysiz. Ishontirib aytamanki, bunaqasi boshqa qaytarilmaydi! Ammo, ogoh bo'ling: va'dalar, aksariyat hollarda, «update¹» qilib turilishini inobatga olishingizga to'g'ri keladi.

Yangi yil ham o'tdi. Dam ham oldik. Endi ishga o'tsak. Zero, «Yangi yillar qanday o'tdi?» deb so'ramoqchi bo'lganlarga, Natashaning shunga o'xshash savolimga bergan javobini keltiraman: «Dam olish – ishlash emas...» U o'shanda bu javobiga shunaqangi «natashacha» qarashlaridan birini ilova qilgandiki, men darrov uning «har qanaqa ahmoqning ham dam olishga aqli yetadi, ammo ishlashga kelsak...» demoqchi bo'lganini bor zehnim bilan idrok etishimga to'g'ri kelgan edi. Shunaqa ekan, mana bir necha kundan beri ishlamaslikka bahona qidiraverib, po'kakka aylanayotgan miyamni bir joyga jamlamasam bo'lmas.

...Yangi yildan bir necha kun o'tar-o'tmas, Natasha Zebiga ruschadan o'zbekchaga tarjima qilish uchun besh-olti varaqli hujjat berganligini aytib, mendan tarjimaning sifatini ko'rib berishni so'radi. Yomonam g'ashim keldi. Negaki, bu mening oldindan qilib yuradigan ishim edi. Ustiga ustak, Tohir yozib bergan majburiyatlarim doirasiga yozma tarjima ishlari kirmagani tufayli, har bir bet tarjima uchun alohida pul to'lanishini bir paytlar Piterdan talab qilib olgan edim.

Shuning uchun qovog'imni ochishga harakat ham qilmadim.

– Nima, Zebini tarjimonlikka yolladinglarmi? – deb so'radim Natashadan.

– Yok, – dedi Natasha o'zini soddalikka olib. – Poprobuyesh, devdim, rozi buldi. Hozir Zebining ishi baribir yuk. Piter Gollandiyadan keyingi xafta keladi.

Natashaga zaharli nigohlarimdan birini tashladim. Ammo na chora?

– Bo'пти, menga jo'natvorsin, hali bo'shaganimda ko'rib chiqarman, – dedim nochorlik bilan.

¹Update (kompyuter lahjasi) – ma'lumotlar yangilanishi bilan, masalan, axborotlar bazasiga kerakli o'zgartirishlar kiritish. (*Barcha tarjimalar muallifdan.*)